



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI INVESTITSIYA VA QURILISH STATISTIKASI BO'LIMI

2019 yilning yanvar oyida

QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari
hajmi -
111,7 mlrd.so`m

Yirik pudrat
tashkilotlari ulushi
- **3,6 %**
Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar
ulushi -
58,6 %
Norasmiy sektor
ulushi -
37,8 %

Joriy yilning yanvar oyida Namangan viloyatida jami 111,7 mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,2 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 4,0 mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,6% hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 86,7 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 58,6 %i yoki 65,5 mlrd.so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 107,4 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 37,8 % yoki 42,2 mlrd.so`m to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan 101,5 %ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari

- hajmi - **4,0 mlrd.so`m**
- o'sish surati - **-86,7 %**

Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar

- hajmi - **65,5 mlrd.so`m**
- o'sish surati - **107,4 %**

Norasmiy sektor


- hajmi **42,2 mlrd.so`m**
- o'sish surati - **101,5%**



IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI

mlrd.so'm

■ 2019 yil yanvar ■ 2018 yil yanvar



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihibalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 82,1 (mlrd) so'mni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davridagi nisbatan 15,8 mlrd so'mga ko'paygan.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 9,1 (mlrd) so'mni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 10,7 (mlrd) so'mga kamaygan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 20,5 (mlrd) so'mni tashkil etib, o`tgan yil davriga nisbatan 1,9 (mlrd) so'mga kamaygan.



Yanvar oyida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Yanvar oyida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi


- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqorolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 1,2 % ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,4 % ga ko`paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 47,6 % (7,3 % ga kamayish) va norasmiy sektoring ulushi 51,2 %ni (6,8 % ga ko`payish) tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo`yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 29,6 %ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 13,4 % ga ko`paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 68,5 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 14,7 % ga kamaydi. Norasmiy sektoring ulushi 1,9 %ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga kamaydi va 1,5 %ni tashkil etdi. Qolgan 98,5 %i kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga ko`paydi.







MULKCHILIK SHAKLLARI BO'YICHA



Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 106,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 95,3 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 foiz punktga ko'paydi.






QURILISH ISHLARI HAJMI HUDUDLAR KESIMIDA



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo`yicha tarkibida Namangan shahri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlarining 92,9 %i yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari






Qurilish hajmining eng yuqori darjasini quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Uychi tumanida (12,0 mlrd.so'm yoki 149,0%) - Uychi tumanida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan, kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylar hamda maishiy hizmat ko'rsatish ob'ektlarini qurish ishlarini

bajarilgan; Yangiqo'rg'on tumanida (7,8 mlrd.so'm yoki 136,5%)- Yangiqo'g'on hududida jismoniy shaxlar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;


To'raqo'g'on tumanida (10,2 mlrd.so'm yoki 125,6%)- To'raqo'rg'on tumanida jismoniy shaxlar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;

2019-yanvar oyida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati % da




Tumanlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so'm)

■ 2019-yil ■ 2018-yil



2019 yilning yanvar oyida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlaringning katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlaringning 23,2 % ini tashkil etdi, Namangan tumanida 13,3 % ni, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,7 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Mingbuloq tumanida bu ko`rsatkich eng past 2,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Uchqo'rg'on tumanida 4,4 % ni, Norin tumanida ushbu ko`rsatkich 4,4 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlaringning hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.

